ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

# PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

# FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

# ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 12

Termiz – 2024

**Muassis:**
**Termiz davlat universiteti**

**PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM**

**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ**

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.12.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

**Tahririyat manzili:**
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

**BOSH MUHARRIR:**
Abduqodir TOSHQULOV,
*iqtisod fanlari doktori, professor*

**TAHRIR HAY’ATI:**

Bekpo‘lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)*
O‘ral Xoliyorov, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)*
Olmos Ulviy Binnatova, *f.f.d., professor (Ozarbayjon)*
Karl Rayxl, *f.f.d., professor (Germaniya)*
Vali Savash yelok, *f.f.d., professor (Turkiya)*
Dorota Silviya, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)*
Muslihiddin Muhiddinov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Ibodulla Mirzayev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Abdi Mamatov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Suyun Karimov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Muhammadxon Hakimov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Nafas Shodmonov *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Dilmurod Quronov, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Murodqosim Abdiyev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Baxtiyor Mengliyev, *f.f.d., professor (O‘zbekiston)*
Normat Yo‘ldoshev, *f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)*
Abdulla Xudoyqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Bobonazar Murtazayev, *f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)*
Asqar Eshmo‘minov, *f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)*
Obidjon Shofiyev, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)*
Zafar Umurqulov, *f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)*
Nurali Amonturdiyev, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Hakim Ahmedov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Ahad Shukurov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Eshnazar Jabborov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Abdumurod Arslonov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Sirojiddin Turdimurodov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Umida Raximova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Gulchehra Begmatova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Nargis Qurbonazarova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Muyassar Xolova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Shoira Omonturdiyeva, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Sherzod Turdiqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Zaynura Qodirova, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Humayun Nadim Muhammad, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*
Dilrabo Ergasheva, *f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)*

**Texnik muharrir:** Bahodir To‘raliyev

**Учредитель:**
**Термезский государственный университет**

**PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM**
**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ**

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.12.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100
Цена договорная
Заказ: 155
Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

**Адрес редакции:**
190111, г.Термез, ул.
Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

**ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР**:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
*доктор экономических наук, профессор*

**РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:**

Бекпулат Умуркулов, *доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)*
Шохиста Махмараимова, *доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)*
Урал Холияров, *ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Олмос Улвий Биннатова, *д.ф.н., профессор (Азербайджан)*
Карл Райхл, *д.ф.н., профессор (Германия)*
Вали Саваш Елок, *д.ф.н., профессор (Турция)*
Дорота Сильвия, *PhD, доцент (Польша)*
Муслихиддин Мухиддинов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Ибодулла Мирзаев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Абди Маматов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Суюн Каримов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мухаммадхон Хакимов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нафас Шодмонов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Дилмурод Куронов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мурадкасим Абдиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Бахтиёр Менглиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нормат Юлдашев, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Абдулла Худайкулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Бобоназар Муртазаев, *ф.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Аскар Эшмуминов, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Обиджон Шофиев, *д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Зафар Умуркулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Нурали Амонтурдиев, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хаким Ахмедов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Ахад Шукуров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Эшназар Джаббаров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Абдумурод Арслонов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Сирожиддин Турдимуродов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Умида Рахимова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Гульчехра Бегматова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Наргис Курбаназарова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Муяссар Холова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шаира Амонтурдиева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шерзад Турдикулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Зайнура Кадирова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хумаюн Надим Мухаммад, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Дильрабо Эргашева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

**Технический редактор:** Баходир Туралиев

**Institutor:**
**Termez State University**

**PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM**

**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ**

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President`s Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.12.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94
Offset printing. Offset paper
Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155

Printed at the
«Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

**EDITOR IN-CHIEF**:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

**EDITORIAL BOARD:**

Bekpulat Umurkulov, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)*
Shohista Makhmaraimova, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)*
Ural Kholiyorov, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Olmos Ulviy Binnatova, *doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)*
Karl Rayxl, *doct.of philol. sciences, professor (Germany)*
Vali Salvash Elok, *doct. of philol. sciences, professor (Turkey)*
Dorota Silvia, *PhD, associate professor (Poland)*
Muslihiddin Mukhiddinov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Ibodulla Mirzaev, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Abdi Mmatov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Suyun Karimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muhammadkhon Khakimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Nafas Shodmonov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Dilmurod Kuronov, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muradkasim Abdiyev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Bakhtiyor Mengliev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Normat Yuldashev, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Abdulla Khudaykulov, *PhD (Uzbekistan)*
Bobonazar Murtazaev, *cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Askar Eshmuminov, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Obidjon Shofiev, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Zafar Umurkulov, *PhD (Uzbekistan)*
Nurali Amonturdiev, *PhD (Uzbekistan)*
Hakim Akhmedov, *PhD (Uzbekistan)*
Ahad Shukurov, *PhD (Uzbekistan)*
Eshnazar Jabbarov, *PhD (Uzbekistan)*
Abdumurod Arslonov, *PhD (Uzbekistan)*
Sirojiddin Turdimurodov, *PhD (Uzbekistan)*
Umida Rakhimova, *PhD (Uzbekistan)*
Gulchekhra Begmatova, *PhD (Uzbekistan)*
Nargis Kurbanazarova, *PhD (Uzbekistan)*
Muyassar Kholova, *PhD (Uzbekistan)*
Shoira Omonturdiyeva, *PhD (Uzbekistan)*
Sherzod Turdikulov, *PhD (Uzbekistan)*
Zaynura Kadirova, *PhD (Uzbekistan)*
Humayun Nadim Muhammad, *PhD (Uzbekistan)*
Dilrabo Ergashova, *PhD (Uzbekistan)*

**Technical editor:** Bakhodir Turaliyev

# МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

**JO‘RAYEVA BIBISH MUXSINOVNA,**
**TO‘XTAYEVA DILAFRUZ ASHUROVNA**
Ekspressivlik va intensivlik munosabati.....7

**ЁҚУБОВ ШАРИФ**
Дарбанд, Темир дарвоза, Оққўтал ва
“Темирдан ясалган дарвоза” атамалари таҳлили .....11

**SHUKUROV AHAD AHMADOVICH**
Tarixiylikni ifodalovchi eskirgan so‘zlar .....15

**AMONTURDIYEV NURALI RASHIDOVICH**
O‘zbek tili izohli lug‘atlarida etnografizmlar aksi .....18

**RAXIMOVA UMIDA DJUMAYEVNA**
Hamid Olimjon ijodida so‘z sehri .....23

**TURDIQULOV SHERZOD DUMINOVCH**
Onomastik ko‘lamda teotoponimlar tadqiqi.....26

**ABDURAXMANOV SHAVKATJON ASHUROVICH**
Funksional sintaksis haqida mulohazalar.....29

**VAFOYEVA MUXAYYO YULDOSHEVNA**
Sinonimlarda miqdor o‘zgarishlarining ayrim ko‘rinishlari xususida.....32

**TUYCHIYEVA OYDIN SAYFULLAYEVNA**
Fors tilida shart-istak mayli qo‘llanilishining o‘ziga xos xususiyatlari.....36

**SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA**
Intralingval lakunalarning lisoniy tabiati .....40

**DUSNAZAROVA MAVJUDA ILYAMONOVNA**
Nikoh marosimlarida milliy o‘zlikning aks etishi.....46

**KADIROVA SAIDA MAXSUDOVNA**
Badiiy tasvir va ifoda vositalarining adabiyotdagi roli .....49

# МУНДАРИЖА

**TO‘YCHIYEVA ZULAYHO HAMROQO‘LOVNA**
Islomiy paremalogik religionimlar .....53

**ABDUVALIYEVA KAMOLA SHAVKAT QIZI**
“Shajarayi turk” asaridagi etnonimlarning hozirgi
O‘zbekiston hududida etnotoponim sifatida uchrashi .....56

**RAHMATULLOYEV AHTAM A’ZAM O‘G‘LI**
Fors tilida otning semantik tasnifi .....60

**HAMDAMOVA NASIBA TO‘RABEKOVNA**
Diniy leksikaning semantik xususiyatlari
(ekzotik leksika, frazeologizmlar, paremiologik birliklar misolida).....64

**YO‘LDOSHEVA NARGIZA**
“Alpomish” dostonida mavjud fonetik dialektizmlar.....68

**ВАПАЕВА АНАХОН НАСУРИЛЛАЕВНА**
Молодёжный сленг в вузах: дешифровка
(на примере студентов Университета Маъмуна) .....71

**ИСМАИЛОВА ФЕРУЗА ИСМАИЛОВНА**
Народные пословицы в произведениях русских писателей.....75

**OBLOQULOVA ZILOLA ULUG‘BEKOVNA**
O‘zbek tilida taqinchoq nomlari semantikasi.....79

ADABIYOTSHUNOSLIK

**КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА**
Жанровое многообразие циклических произведений.....83

TA’LIM

**XOJIYEVA IRODA ZOKIRJON QIZI**
Ta’lim tojik tilida olib boriladigan umumta’lim maktablarda o‘zbek tili
(davlat tili) fanini o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari .....90

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 12
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

# FUNKSIONAL SINTAKSIS HAQIDA MULOHAZALAR

**Abduraxmanov Shavkatjon Ashurovich,**
*Namangan davlat universiteti dotsenti,*
*filologiya fanlari nomzodi*

Funksionalizm, funksional tahlil va funksional imkoniyat tushunchalari turli fanlar doirasida turlicha talqin etiladi. Funksional imkoniyat tushunchasi antropologiya, fiziologiya, psixologiya fanlarida kuzatilgan yoki kuzatilayotgan belgi-xususiyatlarning yoki organik jonzotlarning turli yashash yoki yashab qolish imkoniyatlarini nazarda tutadi va ma'lum bir sistemadagi o'rni hamda vazifasidan kelib chiqadi. Shunga ko'ra sistemaga kiruvchi elementning barqarorligi, sog'ligi va yashab qolish imkoniyati belgilanadi.

Sotsiologiyada funksionalizm tushunchasi ostida ma'lum bir tizim qismlarining o'zaro aloqadorlik qonuniyatlaridan kelib chiqib, jamiyatdagi barqaror holat, kishilar kayfiyati yoki xalq mentalitetiga xos moslashuvchanlik imkoniyatlarini o'rganish nazarda tutiladi. Shundan kelibchiqqan holda, sog'lom yoki nosog'lom muhitdagi shaxsning yoki jamiyatning o'zligi ("men"i)va uning shu sharoitga moslashish imoniyati tadqiq etiladi.

Tilshunoslikda esa funksionalizm tushunchasi keng qamrovli bo'lib, til sistemasidagi barcha lisoniy birlik va vositalarning inson nutqidagi shakliy-vazifaviy imkoniyatlarini o'rganishni nazarda tutadi. Bunda til sistemasiga kiruvchi birliklarning nutq tarkibidagi kommunikativ va badiiy-estetik vazifasi, birliklarning o'zaro bir-biriga munosabati, nutq muallifi fikrini tinglovchiga etkazish jarayonidagi imkoniyatlari nazarda tutiladi. Bunda, albatta, ma'lum bir birlikning nutq sistemasi yoki matn ichidagi funksional imkoniyatlari o'rganiladi.

Funksionalizm va funksionallik tushunchalari jahon tilshunosligining turli lingvistik maktablarida lisoniy birliklarning nutq tarkibidagi kommunikativ vazifasini o'rganish jarayonida paydo bo'ldi. Endi tadqiqotchilar diqqati lisoniy birliklarning nutqni shakllantirishdagi o'rniga emas, balki lisoniy birliklarning aynan bir nutqiy jarayonda nima uchun qo'llanganligi, nutqning kommunikativ vazifasining yuzalanishida qanday vazifa bajarayotganligi va ma'lum bir lisoniy birlikning funksional imkoniyatlarini o'rganishga qaratildi. Natijada jahon tilshunosligida funksional tilshunoslikning qator maktablari yuzaga keldi. Mazkur yo'nalishning shakllanishi va rivojlanishida I.A.Boduena de Kurtene, A.A.Shaxmatov, K.S.Aksakov, A.A.Potebnya, A.M.Peshkovskiy kabi taniqli tilshunoslarning xizmatlarini alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir.[1]

XX asrjahon tilshunosligi, jumladan, Yevropa va rus tilshunosligida olib borilgan juda ko'p tadqiqotlar turli darajalarda lisoniy birliklarni funksional imkoniyatlarini o'rganishga qaratilganligi bilan tilshunoslar diqqatini o'ziga torta boshladi. Bunday tadqiqotlarning natijasi sifatida Jeneva (Sh.Balli), Praga (A.Matezius), Kopengagan (S.Kuno) funksional maktablari yuzaga keldi.[2]

Rus tilshunosligida lisoniy birliklarning funksional imkoniyatlarini o'rganish borasida juda ko'p va diqqatga sazovor ishlar amalga oshirildi. Bu borada rus tilshunosligida olib borilgan tadqiqotlar bo'yicha umumlashtiruvchi sharhiy ma'lumotlarni V.Z.Demyankovning "Funksionalizm v zarubejnoy lingvistike konsa XX veka" monografiyasidan olish mumkin.[3]

O'zbek tilshunosligida tilimizning funksional imkoniyatlariga bag'ishlangan dastlabki monografik tadqiqot sifatida N.Turniyozov va I.Turniyozovalarning "Funksional sintaksisga kirish" ilmiy risolasini ko'rsatish mumkin[4]. Risolada mualliflar lisoniy birliklarning funksional tadqiqiga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib, "«funksiya» termini tilshunoslikda turlicha tushuniladi, zero, til unsurlarining grammatik, semantik, formal-sintaktik funksiyalari mavjudki, ularning har biri alohida monografik tadqiqotlarga asos bo'la oladi. Masalan, an'anaviy tilshunoslikda hozirgacha til unsurlarining grammatik /sintaktik/ funksiyalari tarzida, garchi mantiqiy va semantik qoidalarga asoslangan bo'lsa-da, gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari o'rganilib kelindi va bu mavzuda qator monografik tadqiqotlar qilindi.

[1] Бондарко А. Функциональная грамматика // Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1990. – С.565-566.

[2] Dirven R., Fried V. By way of introduction // Functionalism in linguistics. – A.; Ph.: Benjamins, 1987. – C 89-97.

[3] В.З.Демьянков Функционализм в зарубежной лингвистике конца XX века. http://www.infolex.ru (Мурожаат санаси 21.07.20203)

[4] Турниёзов Н., Турниёзова И. Функционал синтаксисга кириш. – Тошкент: Фан, 2003. – Б 114.

Ushbu maqolada funksional sintaksisning umumiy masalalarini yoritishdatavsiflash, tasniflash, qiyoslash metodlaridan foydalanildi.

Til unsurlarining semantik funktsiyalari ham, shubhasiz, mantiqiy g‘oyalarga tayanadi. Bunga propozitsiya, presuppozitsiya, predikat, subyekt, argument va h. k. kabi tushunchalar talqini bosh mezon sanaladi. Ko‘rinadiki, yuqorida eslatib o‘tilgan har ikki yo‘nalishda ham til hodisalari talqini mantiqiy tushunchalar doirasida o‘rganiladi, ularda sof lingvistik tushunchalar hukmron emas. Albatta, semantik sintaksisning yo‘rig‘i boshqa. Chunki semantika va mantiqni ayri tushunish qiyin. Biroq til unsurlarining an’anaviy tilshunoslikda o‘rganilayotgan funksiyalari, masalan, ega, kesim, aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol kabilarning sof lingistik tushunchalar emasligi so‘nggi paytlarda ko‘pgina tilshunoslarni qoniqtirmayapti... Bunga fransuz tilshunosi, Praga tilshunoslik maktabining nufuzli vakillaridan biri A. Martine tomonidan ilmiy asoslangan funksional tahlil nazariyasini misol keltirish mumkin[1] ”ligini alohida ta’kidlab o‘tadilar. Darhaqiqat, bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, bugungi kunda yuqoridagi kabi masalalar tilshunoslikning kun tartibidagi dolzarb muammolardan biri sanaladi.

Ana shu dolzarblikdan kelib chiqib, aytish mumkinki, jahon tilshunosligida keyingi yillarda tilni nafaqat aloqa-aralashuv vositasi sifatida o‘rganish, balki ta’sir etish vositasi sifatida ham o‘rganish ommalashdi. Endi lisoniy birliklarning nafaqat kommunikatsiya jarayonidagi ishtiroki, balki ularning ma’lum bir vazifa uchun xoslanishi – funksionallashuvi masalalarini o‘rganish kuntartibiga chiqdi. Ularning funksional imkoniyatlarini tadqiq etish har tomonlama atroflicha va turli aspektlarda amalga oshirilmoqda.. Bunday vositalarni funksional` yondashuv asosida o‘rganish nutqning shakllanish jarayonini, fikr ifodalashning tasviriy vositalarini baholash, leksik va frazeologik birliklarning vazifalarini, nutq birliklarining sintaktik-stilistik xususiyatlarini aniqlash imkoniyatini beradi. Shu ma’noda sintaktik birliklarning ham funksional` imkoniyatlarini baholash imkoniyati tug‘iladi. Bugungi kunda dunyo tilshunosligida olib borilayotgan tadqiqotlar, jumladan, funksional` sintaksis doirasida amalga oshirilayotgan izlanishlar soha rivojida alohida amaliy ahamiyatga ega.

Jahon tilshunosligida lisoniy birliklar tadqiqiga funksional yondashish natijasida tilshunoslikda “funksional fonetika”, “funksional leksika”, “funksional morfologiya”, “funksional sintaksis” atamalari paydo bo‘ldi, bu atamalar nutq tizimida lisoniy birliklarning funksional xususiyatlarini u yoki bu jihatdan o‘rganuvchi sohalarning nomlari sifatida e’tirof etilmoqda.

Hozirgi Yangi O‘zbekiston sharoitida ham ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada rivojlantirish, “o‘zbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy ma’lumotlarni o‘zida jamlagan elektron ko‘rinishdagi o‘zbek tili milliy korpusini yaratish choralarini ko‘rish”[2] masalasi dolzarb bo‘lib turibdi. Bu esa o‘z navbatida tilshunoslar zimmasiga o‘zbek tili bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar doirasini yanada kengaytirish, jahon ilmiy-tadqiqot standartlari asosida o‘zbek tilining keng ifoda imkoniyatlarini ko‘rsatib berish vazifasini yuklaydi. Tilimizning milliy grammatik qurilishining to‘g‘ri talqini, jumladan, funksional grammatika asoslarini yaratish milliy mafkura va g‘oyalarimizning ravnaqi uchun eng muhim omillardan biridir. Shuning uchun ham funksional sintaksis masalalari va nutq muammolarini sistemaviy tadqiqotlar doirasida o‘rganish orqali muammoning nazariy jihatlarini to‘liq asoslash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Funksional sintaksis doirasida sintaktik qurilmalarning kommunikativ, kognitiv, shakliy-vazifaviy va hissiy-ta’siriy funksiyalarini tadqiq etish bugungi kunning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Sintaktik butunliklarga xos keng ko‘lamlilik, ifoda imkoniyatlarining salmoqliligi ularni funksional yondashuv asosida o‘rganish zaruratini keltirib chiqaradi.

Ma’lumki, sintaktik sathning o‘rganish obyekti sifatida uch asosiy birlik e’tirof etib kelinmoqda: so‘z birikmasi, gap, matn. Shunga ko‘ra, ya’ni tekshiruv obyektidan kelib chiqib, sintaksisning uch turi (yo‘nalishi) ko‘rsatib o‘tiladi: a) so‘z birikmasi sintaksisi; b) gap sintaksisi; v) matn sintaksisi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, funksional sintaksis tadqiqotlarida ham ana shu uch sintaktik birlikning funksional imkoniyatlariga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Bundan tashqari, sintaktik birliklarga funksional yondashuvda sintaktik sath birliklarining o‘ziga xos iyerarxiyasiga ham alohida diqqat qaratish maqsadga muvofiqdir. Zero, “Tilning har qanday belgisi ham o‘zining aniq mazmuni va funksiyasiga faqat ma’lum bir gap doirasida ega bo‘lar ekan, u, so‘zsiz, bu jarayonda o‘ziga nisbatan kattaroq boshqa bir belgining tarkibiy qismi bo‘lib keladi”[3]. Shunday ekan, sintaktik sathning ichki iyerarxiyasi, ya’ni so‘z birikmasining gap ichidagi, gapning esa matn tarkibidagi funksional imkoniyatlarini o‘rganish funksional sintaksisning birlamchi vazifasi sifatida belgilanishi maqsadga muvofiqdir.

[1] Турниёзов Н., Турниёзова И. Функционал синтаксисга кириш. – Тошкент: Фан, 2003. – Б. 5.

[2] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 октябрдаги “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-6084-сонли Фармони. (“Халқ сўзи” газетаси, 2020 йил 21 октябрь, 221-сон)

[3] Турниёзов Н., Турниёзова И. Функционал синтаксисга кириш. – Тошкент: Фан, 2003. – Б. 5.

“...tilning har bir birligi shakliy butunligini o‘zi tegishli bo‘lgan birliklar guruhi doirasida oladi, masalan, fonema fonologiya doirasida, morfema va so‘z morfologiya doirasida va hokazo. Biroq ularning ma’nolari o‘zlari tegishli bo‘lgan guruhlar doirasida emas, balki bu guruhlar doirasiga nisbatan kengroq va kattaroq obyektlarda aniq ifodasini topadi”[1]. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, har bir katta lisoniy birlik o‘zidan kichik birlik uchun kontekst vazifasini bajaradi. Sintaksis til sathlari orasidagi eng oliy sathdir. Shuning uchun ham tilning kichik birliklari faqat shu sathdagina, ya’ni, uning birliklari hisoblangan so‘z birikmasi, gap va matnda o‘zlarining to‘liq funksional imkoniyatlarini yuzaga chiqaradilar. O‘z navbatida so‘z birikmasining funksional imkoniyatlari gap doirasida, gapning funksional imkoniyatlari matnning semantik strukturasida yuzaga chiqadi. Sintaktik birliklarning funksional tahlilida tadqiqotchidan ana shu jihatlarga e’tibor qaratish talab etiladi.

Matn orqali ifoda etilayotgan informatsiya lisoniy birliklar vositasida tinglovchiga (o‘quvchiga) o‘ziga xos tarzda yetkaziladi. Bu jarayondakontekst yoki nutqiy vaziyat nutqning tushunarliligini ta’minlovchi birinchi mezon bo‘lsa, nutq muallifining so‘z boyligi, bayon qilinayotgan mavzu doirasidagi bilimi, nutqiy mahorati kabi nutq diskursi tarkibiga kiruvchi elementlar kommunikatsiya jarayonidagi ikkinchi mezon hisoblanadi. Shu tarzda quyidagilar nutq orqali ifoda etilayotgan fikr manbasi sifatida doimo ishtirok etadi: 1) matn (nutq)ning lisoniy (lisoniy birliklari va vositalari) tarkibi; 2) kontekstdagi oldindan ma’lum bo‘lgan (masalan, fikr Ahmad haqida ketayotgan bo‘lsa, so‘zlovchi uchun ham tinglovchi uchun ham Ahmadning oldindan ma’lum bo‘lgan belgi-xususiyatlari haqidagi) informatsiya; 3) situatsiya (nutqiy vaziyatga) oid informatsiya; 4) ensiklopedik informatsiya; 5) diskursning informatsiyani uzatuvchi va qabul qiluvchi tomonidan bir xil his qilinuvchi axborot tarkibiga kiruvchi barcha pragmatik elementlari. Shu jarayonda so‘zlovchi tomonidan qo‘llanilgan lisoniy birliklar eng asosiy informativ birliklar sifatida nutqni shakllantiradi va uning mazmunini ifoda etadi. Ana shu birliklarning nutq tarkibida qanday vazifa bajarishi va funksional imkoniyatlarini o‘rganish, bizningcha, funksional sintaksisning markaziy masalalaridan biri hisoblanadi.

Umuman, lisoniy birliklarni funksional sintaksis mezonlari asosida tadqiq etish tilimizning boy ifoda imkoniyatlarini o‘rganishda, o‘zbek badiiy nutqining sintaktik xususiyatlarini har tomonlama aniqlash va baholashda katta yordam beradi.

**Rezyume.** Maqolada jahon tilshunosligida funksional tilshunoslikning yuzaga kelishi, shakllanishi va rivojlanishi haqida ma’lumot berish bilan birga, o‘zbek tilshunosligida funksional lingvistika bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadqiqotlar bo‘yicha yo‘nalishlar ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, o‘zbek tili funksional sintaksisining umumiy masalalari yoritilgan.

**Resume.** The article provides information on the emergence, formation and development of functional linguistics in world linguistics, as well as directions for research that should be carried out on functional linguistics in Uzbek linguistics. Also, the general issues of the functional syntax of the Uzbek language are covered.

**Резюме.** В статье представлена информация о возникновении, формировании и развитии функциональной лингвистики в мировом языкознании, а также указаны направления исследований, которые необходимо провести в области функциональной лингвистики в узбекском языкознании. Кроме того, освещены общие вопросы функционального синтаксиса узбекского языка.

[1] Бондарко А.В. Лингвистика текста в системе функциональной грамматики. – Москва, 2001. – С 11.